

O‘ZBEK TILIDA BOLALAR NUTQIDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR VA IJTIMOY DIALEKTIZMLAR TAHLILI

¹Turg‘unova Marjonabonu Obidjon qizi, ²Narmurodova Gulnoza Ilhom qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, xorijiy til va adabiyoti, ingliz tili 1-fakulteti talabasi
turgunovamarjona8@gmail.com¹, Ilmiy rahbar O‘zDJTU Umumiy tilshunoslik kafedrasida dotsenti,
PhD²

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20292151>

Abstract: Mazkur maqolada o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan dialektlar va uning bolalar nutqidagi ko‘rinishi, ya‘ni tildagi dialektlarning bolalar nutqidagi ijtimoiy shakli va o‘ziga xos leksik birliklar tahlili yuzasidan ma‘lumotlar izohlangan.

Keywords: dialekt, ontogenez, leksik birlik, leksik semantik, imitatsiya, dialektologiya, leksik dialektizm.

KIRISH

Insoniyat dunyoga kelib hayoti davomida til boyliklarini o‘zlashtiradi va ularning ko‘lamini vaqt o‘tgan sayin takomillashtirib, oshirib boradi. Bunga ularning yashab turgan hududi, atrof-muhiti, qay tarzda, kimlar bilan muloqotda bo‘lishi o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi, albatta. Insonlarning til boyligiga hudud va boshqa ijtimoiy omillarning ta‘sir ko‘rsatishi haqida gapirilganda, tilda mavjud shevalar to‘g‘risida so‘z borishi joizdir. Ushbu til birliklari bolalar nutqida qanchalar o‘ziga xoslikni shakllantirishi mumkinligi borasida mazkur maqolada atroflicha ko‘rib chiqamiz.

ASOSIY QISM

Bolalar nutqiga bir qancha tashqi ijtimoiy omillar o‘z ta‘sirini o‘tkazadi va buning natijasida yangi til birliklari yuzaga keladi. Ayniqsa, tili chiqib, endigina insonlar bilan muloqotga kirishayotgan bolalar nutqidagi til birliklari insonlar e‘tiborini tortmay qolmaydi. Ontogenez davri tushunchasiga fanda ona tilining lug‘at tizimini o‘zlashtirishdagi asosiy davr deb qaraladi, ammo bolalar doim ham yangi uchratgan leksik birliklarni til me‘yorlariga muvofiq holda ishlata olishmaydi.

Demak, bolalar nutqiga ham ular yashab turgan muhit, ular muloqotga kirishayotgan odamlarning nutqi, shevasi ta‘sir o‘tkazadi. Bu o‘rinda, bola nutqida barchaga ma‘lum tushunchani ifodalovchi yangi so‘zlar, leksik birliklar, hosil bo‘ladi. Bu mulohazani Munavvara Qurbonova[]ning olib borgan kuzatishlari ham tasdiqlaydi: “umma”- so‘zi aksariyat bolalar nutqida “suv” ma‘nosini anglatadi. Bu kabi leksik birliklar bolalar bilan muloqot jarayonida kattalar tomonidan ma‘lum fikrni tushunarliroq ifoda etish maqsadida nutqqa olib kiriladi. Ontogenez davridagi bolalarda lug‘at boyligining kamligi bois ular yuqoridagi kabi birliklarni muloqot jarayonidan o‘zlashtirib, o‘z nutqida faol qo‘llay boshlaydi. Chunki, ularning lug‘atida bu birliklar ma‘lum integral ma‘noni ifoda etishga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Yuqoridagi kabi leksik birliklarning ayrimlari bola istiqomat qilib turgan makon va o‘sha makonda mavjud shevaning bola nutqiga o‘tkazgan ta‘siri natijasida yuzaga keladi. Bu holatga esa bolalar nutqidagi o‘ziga xos leksik dialektizm deb qarash mumkindir. Shu o‘rinda, V.M.Jirmunskiyning[] quyidagi fikrini keltirib o‘tish joizdir: “Har qanday tilda dialektologiya mavjud ekan, unda ijtimoiy dialektologiya ham bo‘lishi lozim.” Bolalar nutqidagi ijtimoiy dialektologiyaga ko‘plab misollarni uchratishimiz mumkin. Masalan, suv tushunchasini Farg‘ona shevasida so‘zlovchi bolalar “imma” desa, Buxoro shevasidagilar “buvva” deb atashar ekan. Kasal bo‘lmoq so‘zini – Farg‘ona shevasida

bolalar “vava bo’lmoq” deb qo’llasa, Buxorodagi bolalar nutqida “ufa bo’lmoq” shaklida qo’llanilishini kuzatishimiz mumkin bo’ladi. Yoki issiq tushunchasi – Farg’ona dialektida “papa” shaklida qo’llanilsa, Qoraqalpoq shevasida “pish” tarzida bolalar nutqida ifodalanishi aniqlandi. Bunday bolalar nutqiga xos til birliklarini leksik-semantik jihatlariga ko’ra bir necha turlarga ajratish mumkin:

1.Shaxs nomini bildiruvchi so’zlar:

jijji-chaqaloq (Farg’ona shevasida);

ninni - chaqaloq (Toshkent sheva);

dudur- doctor, shifokor (Buxoro shevasida).

2.Narsa- buyum nomlarini bildiruvchi so’zlar:

Tataqa - oyoq kiyim, shappa – bosh kiyim ma’nolarida (Farg’ona shevasida);

xaya- kiyim, vava- yara, nanna- non, gol- to’p (Toshkent sheva);

babay- yangi kiyim, kuku- tuxum (Buxoro shevasida).

3. Buyumlar belgisini ifodalovchi so’zlar:

Qix - kir, iflos, buji-yomon (Farg’ona sheva);

opoq- yaxshi, toza (Toshkent sheva).

4.Ish-harakatni ifodalovchi so’zlar:

Ho’ppa – ko’tarmoq, yalo-yalo qilmoq - raqsga tushmoq, aq qilmoq - urmoq, piq qilmoq- kesmoq (Farg’ona sheva);

xam qilmoq – yemoq, bum – yiqilmoq (Toshkent sheva);

baqqi bo’lmoq- yiqilmoq (Buxoro sheva).

5.Imitatsiya bilan paydo bo’lgan so’zlar:

vat-vata – karnay-surnay(Farg’ona sheva);

chiq-chiq – soat, bi-bip – mashina (Toshkent sheva).

Ushbu keltirilgan birliklar kabi so’zlar bolalar nutqida muloqot davomida yaqqol namoyon bo’ladi va ma’lum muddat mobaynida bolalarning faol so’z boyligi bo’lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o’rnida aytish joizki, inson va jamiyat bor ekan, ularning bir-biriga ta’siri natijasida yuzaga keluvchi leksik birliklar, neologizmlar, dialektizm va ulardagi o’ziga xosliklar o’z ahamiyatini oshirishda davom etadi va tilning boyishiga xizmat qiladi. Bu hodisalar, shubxasiz, eng avval bolalar nutqida ko’zga tashlanadi va o’ziga xosliklar kasb etgan holda rivojlanadi.

References:

1. Qurbonova. A.M. O’zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. Diss.avtoref. Toshkent, 2009. B. 7-8.
2. Wikipedia.
3. [https://fayllar.org/nutqning ontogenezdada rivojlanishi](https://fayllar.org/nutqning_ontogenezdada_rivojlanishi).
4. Iskandarova. G. Sotsiolingvistika. Toshkent, 2004.